

**XORIJIY TILNI O'RGANISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING
TAHLILI**

Choriyeva Sabrina Javlon qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti 2-kurs talabasi

e-mail: sabrinachoriyeva2@gmail.com

Tel: +998-90-883-51-05

Ilmiy raxbar: Sh.O.Mamayoqubova

e-mail: mamayoqubovashahlo@gmail.com

Tel: +998937261746

ANNOTATSIYA. *Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan globallashuv zamonda xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Ammo o'quvchi yoshlar xorijiy tilni o'rganish mobaynida turli xil qiyinchiliklar va ba'zi bir muammolarga duch kelishadi. Natijada, ularning tilga nisbatan bo'lgan qiziqishlari tezda yo'qolib qolishi mumkin. Ushbu maqola, xorijiy tilni o'rganishni boshlagan yoshlar yo'l qo'yadigan xatolar, muammolar, ba'zi qiyinchiliklar va ularning tahlili ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *talaffuzdagi xatolar, grammatik va fonetik xatolar, o'zbek va ingliz tilidagi harflar farqlanishi.*

**ПРОБЛЕМЫ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА И ИХ
АНАЛИЗ**

Аннотация. *В настоящее время, в эпоху глобализации, спрос на изучение иностранного языка растет с каждым днем. Но молодые студенты сталкиваются с различными трудностями и некоторыми проблемами при изучении иностранного языка. В результате они могут быстро потерять интерес к языку. В данной статье будут рассмотрены ошибки, проблемы и некоторые трудности, которые допускают молодые люди, начинающие изучать иностранный язык, и их анализ.*

Ключевые слова: ошибки в произношении, грамматические и фонетические ошибки, разница между узбекскими и языковыми буквами.

PROBLEMS IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING AND THEIR ANALYSIS

Annotation. Nowadays, in the era of globalization, the demand for learning a foreign language is increasing day by day. But young students face various difficulties and some problems while learning a foreign language. As a result, their interest in the language can be quickly lost. This article examines the mistakes, problems, and some difficulties that young people who start learning a foreign language make and their analysis.

Key words: mistakes in pronunciation, grammar and phonetic mistakes, the difference between uzbek and language letters.

Yillar, asrlar sinovida toblangan, ko'pni ko'rgan, bugun erkinlik havosidan nafas olib yashayotgan, o'z qadr-qimmatini, insoniy sha'nini, ne-ne ulug' zotlarning vorislari ekanini, o'zligini anglagan, milliy g'urur va iftixorini tiklagan, xalqaro maydonda o'ziga munosib o'rin egallab borayotgan, o'z kuchiga va ertangi kuniga ishongan, o'z yurti, o'z farzandlarining kelajagi farovon bo'lishiga intilayotgan bizning xalqimizni hech qanday kuch to'xtata olmaydi." Yurtboshimizning bu fikrlari yoshlarni doim izlanishda bo'lishga chorlaydi. Buning ustiga yurtimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor yuksakdir. Prezidentimizning 10.12.2012 yildagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorlariga muvofiq yurtimizda yosh avlodga xorijiy til o'rgatish yanada kuchaytirildi.

Barchamizga ma'lumki, ingliz tili kundan kunga jadal rivojlanib bormoqda va unga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Shu sababli yurtimizda ham ingliz tilini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchaytirilmoqda. Bunga misol qilib, hattoki maktabgacha ta'lim muassasalarida ham xorijiy tilni o'rgatish yo'lga qo'yildi va buning natijasida til biluvchilar soni ortib bormoqda. Albatta xorijiy tilni

o'rganishda bir qancha muammolarga duch kelamiz va ularning tahlilini ushbu maqolada ko'rib chiqamiz.

Bugungi kunda dunyoda 7000dan ortiq tillar mavjud. Bular orasida eng muhimi va hozirgi kunda jadal rivojlanayotganlaridan biri bu ingliz tilidir. Yurtimizda oxirgi 4-5 yil davomida yoshlarni aynan ingliz tilini o'rganishga jalb qilish borasida ko'plab say-harakatlar olib borilmoqda.

Ta'kidlash joizki, o'quvchi yoshlar ko'p hollarda til o'rganishga jiddiy yondashmaydilar. Grammatik qoidalarga bog'lanib qolish, til bilan bog'liq to'siqlar kabi muammolar o'quvchi yoshlarning til o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni so'ndirib, jiddiy yondashmaslikka sabab bo'ladi. Aslida muloqot tushunarli bo'lishi uchun tuzilgan jumlar grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishi shart emas, degan g'oyani bir vaqtning o'zida qisman to'g'ri va qisman noto'g'ri, deb hisoblayman. Chunki so'zlashuv chog'ida doimiy ravishda grammatik qoidalarni o'rniga qo'yib gap tuzilsa, tildagi ravonlikka putur yetadi. Talabalar har doim ham mashg'ulotda o'rgangan qoidalarga rioya qilmaydilar va rioya qila olmaydilar. Bundan tashqari, nofilologik oliy o'quv yurtlarida talabalar xorijiy tillarga ikkinchi darajali fan sifatida munosabat bildiradilar. Afsuski, aksariyat hollarda o'quvchi yoshlar tilni mashg'ulot payti o'rganadilar. Dars mashg'ulotlaridan so'ng mustaqil ravishda talaffuzni, insho yozishni mashq qilib, yangi so'zlarni o'rganishga harakat qilmaydilar. Eng katta kamchiliklardan biri shuki, xatolar tuzatilganda ko'pincha "bu axir mening tilim emas", degan fikr talabalar miyasidan joy egallagani sir emas. Bu esa chet tilini o'rganishga salbiy ta'sir qiladi.

Biroq chet tilini o'rganish va o'qitish juda mas'uliyatli kasbdir. Bu jarayonda o'qituvchilat yetarli bilimga ega bo'lishlari va shu bilan bir qatorda sabrli bo'lishlari kerak chunki ingliz tilini o'rganishga kirishayotgan yoshlar o'rganish mobaynida turli xil qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Ma'lumki, ingliz va o'zbek tillari bir turdagi oilalarga mansub emas. Bu esa til o'rganuvchilarga fonetik va grammatik jihatdan qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ingliz tilidagi harflar talaffuzi o'zbek tilidan anchagina farq qiladi. Masalan:

-[w] tovushi o'zbek tilida mavjud emas. Bu tovushni talaffuz etishda o'zbek tilidagi [v] bilan adashtiradilar;

-[o,o] 2ta [o] harfining o'qilishi ham o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Ba'zi bir so'zlarda [u] deb, ba'zilarida esa [o] deb talaffuz qilinadi;

-[c] va [s] harflarining talaffuzi ham bir-biridan farq qiladi. [c] harfi ingliz tilida asosan [k] deb o'qiladi ammo 3 holatda [s] deb talaffuz qilinadi. Bular: [c] harfidan keyin [e, i, y] harflari bilan kelsa, [s] deb o'qiladi. Bundan tashqari bir qancha fonetik qiyinchiliklar ham mavjud. Ular:

-[e] harfining so'z oxirida talaffuz etilmasligi - apple ;

-[gh] harf birikmasining so'z o'rtasida o'qilmasligi- night, eight;

-[k] harfining so'z boshida [n] dan oldin talaffuz etilmasligi- know, knock .

Va bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi.

O'quvchi barcha so'zlarni bilsa-yu, gaplar orasidagi bog'lanishlarni bilmasa, u nutqning mazmunini tushunishga qiynaladi. Agar o'quvchi grammatik ko'nikmalarni yaxshi egallamagan bo'lsa, u gapirish va yozishda qiynaladi. Shuning uchun ham yurtimizda maktablarda hattoki bolalar bog'chasida ham ingliz tilidan boshlang'ich bilimlar berib borilmoqda. Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'rganishda xato va qiyinchiliklarga duch kelish tabiiy holat. O'qituvchilar o'quvchining qayerda qanday xato va qiyinchilikka duch kelishlariga alohida e'tibor qarataishlari va shu kabi muammolarni bartaraf etishlari kerak.

Yechim sifatida bir qator yo'llarni sanab o'tish mumkin. Shulardan biri, talaba tovush va so'zlarning to'g'ri talaffuzini o'rganishi uchun audiomateriallardan keng foydalanishi kerak. Aynan mustaqil ravishda chet tilida filmlar, til o'qitishga moslangan vide-olavhalarni tomosha qilish qisman bo'lsa ham ko'p-rik sifatida xizmat qiladi. Ikkinchidan, ingliz tilini o'rgatishda o'qituvchilar-ning ham roli bo'lib, motivatsiya berish, darsga qiziqtirish asosiy o'rin egallaydi. Bundan tashqari, til o'rgatishda turli metodlarni qo'llash hisobga olinishi kerak, chunki u o'qituvchilar ingliz tilini o'rganishda o'quvchilarga mos sharoit yaratish hamda talabalarning o'quv muammolari bilan shug'ullanishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ILOVALAR:

1. <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/download/10190/7356>
2. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.htm>
3. A. Karimov. ona yurtimiz baxtu iqbol va buyk kelajagi yo'lida hizmat qilish — eng oliy saodatdir. T. O'zbekiston. 2015.
4. <https://moluch.ru/archive/107/25687/>